# ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY HARAKATLAR REJASI (ESAP)[1]
# "INDORAMA AGRO" MCHJ XK (INDORAMA AGRO)

## 27 APREL, 2021 YIL

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **PR1/PS1** | **Atrof-muhit va ijtimoiy xavf va ta'sirlarini baholash va boshqarish** | | | | | | |
| 1.1<br><br>XMK ESAP 1.4 | Malakali va tajribali mutaxassislar guruhini saqlab qolish, yumshatish chora-tadbirlarining bajarilishini baholash uchun mustaqil, yarim yillik tashqi monitoring o'tkazish va Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (AMIBR – quyida 1.3 ga qarang) va ESAP talablariga muvofiq bo'lishida muhim bo'lgan qo'shimcha yoki o'zgartirilgan yumshatish choralariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. Ekspert kompaniya tomonida Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish Banki (YTTB) va Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) bilan kelishilgan holda tanlanadi va to'g'ridan-to'g'ri kompaniyaga va kreditorlarga hisobot beradi. Kreditorlar Atrof-muhit va ijtimoiy (AMI) monitoringi bo'yicha mustaqil maslahatchi uchun ish hajmi doirasida Texnik shartlarni taqdim etadi. | Atrof-muhit, sog'liq, xavfsizlik va ijtimoiy (AMSXI)[5] xavfi va ta'sirini monitoring qilish | YTTBning PR1<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari<br><br>AMSXI mustaqil konsultanti | Imzolangandan boshlab 3 oyda safarbarlik qilish hamda safarbarlikning birinchi oyida birinchi tahlilni tashkillashtirish<br><br>2021 yilda paxta yig'im-terimi paytida birinchi tashrif (2021 yil sentabr-oktabr)<br><br>Tashrif hisobotini 2021 yil | AMSXI konsultantlari tomonidan aniqlanishi va kreditorlar tomonidan ma'qullanishi<br><br>Monitoring tashriflari AMSXI konsultantlari tomonidan yakunlanishi va kreditorlarga taqdim etilishi hamda ko'rib chiqilishi. | |

[1] Environmental and Social Action Plan (ESAP)
[2] YTTBning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosati Ijro talablari (Performance Requirement, PR) orqali tartibga solinadi.
[3] XMKning Atrof-muhit va Ijtimoiy siyosati Ijro standartlari (Performance Standards, PS) orqali tartibga solinadi.
[4] Best Practice - Eng yaxshi amaliyot
[5] Environmental, Health and Safety, and Social (EHSS)

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | noyabrgacha taqdim etish<br><br>Birinchi ikki yilda bir yilda ikki marta.<br><br>2024 yildan boshlab har yili | | |
| 1.2 | Amaliyot bosqichida YTTBning PR / XMK PS talablariga muvofiq integratsiyalashgan Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimini (AMIBT) to'liq ishlab chiqish va amalga oshirish. Tizim AMSXI ning tegishli siyosati, protseduralari va resurslarini o'z ichiga olishi hamda loyiha bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy muammolarni tegishli identifikatsiyalash, yumshatish, monitoring va hisobotni ta'minlashi darkor.<br><br>Atrof-muhit, ijtimoiy, mehnat, sog'liq va xavfsizlik masalalari kompleks tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun kasbiy sog'liq va xavfsizlik va mehnat masalalarini AMIBT ga kiritish.<br><br>AMIBT ISO 14001 va ISO 45001 kabi eng yaxshi xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirilishi kerak. | AMSXI ta'sirlarini tizimli boshqarish | YTTBning PR1<br>XMKning PS1<br>Eng yaxshi amaliyot | Shirkat resurslari<br><br>Belgilangan mas'uliyatlar | Birinchi to'lovdan oldin<br><br>2022-yil iyul | Barcha talab qilinadigan mavjud and rejalashtirilgan AMSXI siyosatlari, protseduralari va resurslarini aniqlaydigan Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimi (AMIBT)<br><br>Atrof-muhit, sog'liq va xavfsizlik boshqaruv tizimi mavjud ekanligi va 2022 yil iyulga qadar tatbiq etishga tayyorligi.<br><br>Tizim hujjatlarining to'liq ro'yxati va kreditorlarga taqdim etiladigan namunaviy protseduralari. | |
| 1.3 | Barcha qarz beruvchilarni qondirish uchun Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash (AMITB) III-nashriyotda / Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (AMIBR) da | Tegishli boshqaruv va monitoring rejalarini amalga oshirish orqali | YTTBning PR1<br>XMKning PS1<br>Best Practice | Shirkat resurslari<br>Tashqaridan yollangan | 2021- yil may (Q-AMIBRlar)<br><br>2021-yil avgust | To'liq ishlab chiqilgan Q-AMIBRlar va O-AMIBRlar kreditorlar tomonidan qabul qilingan, ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| XMK ESAP 1.1 | keltirilgan boshqaruv rejalarining to'liq to'plamini ishlab chiqish.<br>Operatsion AMIBRlar (O-AMIBRlar) to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklari uchun ham, shartnoma asosida yollangan fermer xo'jaliklari uchun texnik talablar va monitoring tartib-qoidalarini, shuningdek, tashkilot tarkibidagi rol va majburiyatlarni aniq belgilashni o'z ichiga oladi.<br>Pudratchilar tomonidan qurilish AMIBRlar (Q-AMIBRlar) bajarilishini nazorat qilish.<br>Loyihaning hayoti davomida bunday rejalarni amalga oshirish va saqlash. | atrof-muhit, ijtimoiy, sog'liq va xavfsizlik muammolarini boshqarish va monitoring qilish. | | konsultantlar, kerak bo'lsa<br>Belgilangan mas'uliyatlar | (O-AMIBRlar) | | |
| 1.4<br><br>XMK ESAP 1.2 | Barcha AMIBRlarning bajarilishini va bajarilishini kuzatish uchun markazlashtirilgan majburiyatlar registrini va ish faoliyatini kuzatish tizimini yaratish | Atrof-muhit, sog'liq, xavfsizlik va ijtimoiy (AMSXI) xavfi va ta'sirini monitoring qilish<br>AMSXI ning takomillashtirilgan boshqaruvi | YTTBning PR1<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari | 2021-yil sentabr | YTTB va XMK tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan majburiyatlar registri va kuzatuv tizimi | |
| 1.5<br><br>XMK ESAP 1.3 | Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimlari (AMIBT) va Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv reja (AMIBR)larni ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish, faoliyatini nazorat qilish va qarz beruvchilarga hisobot berish uchun maxsus yetarli resurslarga ega atrof-muhit va ijtimoiy bo'limni tashkil qilish. Bo'lim ta'sir ko'rgan va manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni tashkil etish uchun tajribali aloqa va munosabatlar menejerini jalb etishi kerak. Atrof-muhit va ijtimoiy sohalarga oid har bir yaratilgan lavozim uchun aniq rol va | Atrof-muhit, ijtimoiy, sog'liq va xavfsizlikni boshqarish tizimini joriy qilish. | YTTBning PR1<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari | 2021-yil iyul | Loyiha uchun tayinlangan Atrof-muhit, sog'liq va xavfsizlik (AMSX) menejeri va hisobotchilari<br><br>Loyiha uchun tayinlangan aloqa va munosabatlar menejeri | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | majburiyatlarni va lavozim tavsiflarini taqdim etish. | | | | | | |
| 1.7 | Genderga asoslangan zo‘ravonlik va tazyiq (GAZT) ni loyihaga aloqador ishchilar bilan muloqot qilgan holda chuqur o‘rganish orqali ishchilar va aholiga soladigan xavflarni aniqlash va oldini olish va yumshatish choralarini ishlab chiqish.<br>Zarur bo‘lganda, 2.1 va 4.1 bandlarida e’tirof etilgan harakatlarga binoan loyiha bilan o‘zaro bog‘liq ravishda ish joyida hamda loyiha ishchilari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan jamoalarda ishchilar uchun genderga asoslangan zo‘ravonlik, jinsiy tazyiq va kamsitishlar bo‘yicha siyosat va protseduralarni ishlab chiqish.<br>Genderga asoslangan zo‘ravonlik, jinsiy tazyiq, va tahqirlash bo‘yicha siyosat va protseduralarni ishlab chiqish.<br>Ushbu siyosat va protseduralarni xavfsiz tarzda amalga oshirish uchun AMSXI va kadrlar bo‘limi xodimlarini salohiyatini oshirish va o‘qitish.<br>Barcha xodimlar, pudratchilar va shartnoma asosida yollangan fermer (pudratchi fermer) lar orasida axloq kodeksi va GAZT ni oldini olish bo‘yicha o‘quv treningini o'tkazish. | Genderga asoslangan zo‘ravonlikning oldini olish va kamaytirish. | YTTBning PR1, PR2 va PR4<br>XMKning PS1, PS2 va PS4 | “Indorama Agro”<br>Ekspert konsultant | 2021-yil avgust<br>2021-yil sentabr<br>2022-yil yanvar<br>Davomiy monitoring | Baholash to‘g‘risidagi hisobot YTTB va XMK bilan kelishilganligi va ularga berilganligi.<br>Siyosat va protseduralar YTTB va XMK bilan kelishilganligi va ularga berilganligi.<br>YTTB va XMKga o‘quv trening haqida hisobot berilganligi.<br>GAZT bo‘yicha hisobotlar YTTB va XMKga ishonchli va maxfiy tarzda taqdim etilganligi. | |
| **PR2/PS2** | **Mehnat va ish sharoitlari** | | | | | | |
| 2.1 | “Indorama Agro” ning genderga asoslangan zo‘ravonlik va ta’qib qilish (GAZT) ni oldini olish va yumshatish bo‘yicha siyosatini ta‘minlash va rasmiylashtirish. Hamda, kadrlar siyosatidagi talablarni aniqlashtirish. | Korxona, uning ishchilari va pudratchilari orasida genderga | YTTBning PR2<br>XMKning PS2 | Shirkat resurslari | 2021-yil sentabr | Shirkat siyosati kreditorlar tomonidan qabul qilingangligi, ko‘rib chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| XMK ESAP 2.1 | “Indorama Agro” ning barcha ishchilariga talablarni e’lon qilish va “Indorama” ning standartlariga muvofiq holda o‘z talablarini ishlab chiqish bo‘yicha pudratchi fermerlar bilan birga ishlash.<br>Ishchilarning shikoyat qilish mexanizmi barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish olib boruvchi xodimlar hamda pudratchi qishloq xo‘jaligi ishchilari uchun ochiqligini ta’minlash va genderga asoslangan zo‘ravonlik va tazyiq bo‘yicha shikoyatlar xavfsiz va maxfiy tarzda ko‘rib chiqilishini ta’minlash.<br>Asosiy kadrlar uchun kadrlar malakasini oshirish va o‘qitish. | asoslangan zo‘ravonlik va tazyiqni minimallashtirish | | | 2021-yil dekabr<br><br>2022-yil yanvar | GAZT bo‘yicha shikoyatlarni xavfsiz qabul qilish uchun takomillashtirilgan shikoyatlar mexanizmi<br><br>Salohiyatni oshirish treningi bajarilganligi; o‘tkazilgan mashg‘ulotlarni qayd etilganligi. | |
| 2.2<br><br>XMK ESAP 2.2 | Ayol ishchilarni ish bilan ta’minlashni yaxshilash uchun gender yondashuv asosida kadrlar siyosati olib borish va amaliyotini ta’minlashni shirkat darajasida kiritish. Shu nuqtai nazardan, aniq harakatlar rejasi va yo‘l xaritasi orqali shirkatda ayollarning bandlik ulushini shirkat faoliyatining birinchi 5 yilligida eng yuqori harakatda kamida 25% ga yetkazish (yakuniy majburiyat bilan uzoq muddatli istiqbolda eng yuqori harakatda 45% ga erishish). Bunda aniq chora-tadbirlar shu jumladan eng yaxshi xalqaro amaliyotga muvofiq xodimlarni gender yondashuv asosida yollash va saqlab qolish; ayol xodimlarning bolalarini parvarish qilish bo‘yicha maqbul ehtiyojlarini qondirish; ayol ferma ishchilarini yollashni rag‘batlantirish uchun brigada rahbarlari va agronomlarni jalb qilish; va monitoring va qarorlarni qabul qilishni takomillashtirish uchun asosiy ishchilarni yollash, saqlab qolish va | Ayol xodimlarning ishchi kuchlarida ishtirokini oshirish | YTTBning PR2<br>XMKning PS2 | Shirkat resurslari | 2022-yil aprel<br><br>2024-yil sentabr | Harakatlar rejasi kreditorlar tomonidan qabul qilib olinganligi, ko‘rib chiqilganligi va tasdiqlanganligi.<br><br>Ayollarning bandlik ulushi eng yuqori harakatda 25% ga yetganligi. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | lavozimlar ko‘tarilishi natijalarini gender bo‘yicha taqsimlangan ma’lumotlar ko‘rinishida to‘plash. | | | | | | |
| 2.3 | Tazyiqlardan holi va xurmat bilan yondoshiladigan ish joyi siyosati va protseduralarini ishlab chiqish va barcha xodimlarga treninglar o‘tkazish. | Nomaqbul xatti-harakatlarni tezda ko‘rib chiqish. | YTTBning PR1, PS2 | Shirkat resurslari | 2021-yil iyul<br><br>2021-yil dekabr | Siyosat kreditorlar tomonidan qabul qilinganligi, ko‘rib chiqilganli va tasdiqlanganligi<br><br>Barcha operatsiyalar bo‘yicha amalga oshirish majburiyatlari tegishlicha yuklanganligi va treninglar tashkillashtirilganligi. Trening natijalari YTTB hamda XMKga taqdim etilganligi. | |
| 2.4 | Yangilangan kadrlar siyosati ishchilarga, shu jumladan o‘zlari tanlagan bir nechta ishchilar uyushmasiga a'zo bo‘lish huquqini keng tushuntiriladi va o'zaro tushunchani va konstruktiv hamkorlik muhitini rivojlantirish maqsadida barcha tegishli menejerlarni Uyushish erkinligi va jamoaviy bitimlar huquqini samarali tan olish (FACB) huquqlari doirasida o‘qitish bo‘yicha choralar ko‘riladi. | Uyushish erkinligi va jamoaviy bitimlar huquqini samarali tan olish (FACB) huquqlarini ta’minlash | YTTBning PR2<br>XMKning PS2<br><br>O‘zbekiston Resublikasining Kasaba uyushmalar tog‘risidagi qonuni (2019)<br><br>ISO 45001 | Shirkat resurslari | 2021-yil sentabr | Barcha operatsiyalar bo‘yicha treninglar tashkillashtirilganligi. Trening natijalari YTTB hamda XMKga taqdim etilganligi. | |
| 2.5 | Indoramaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqariladigan paxta dalalari va paxta tozalash zavodlaridagi ishchilarni qamrab oluvchi mehnatni baholash. Kreditorlar | Doimiy xodimlar uchun mehnat standartlarini tegishli boshqarish | YTTBning PR2/PR4<br>XMKning PS2 | Shirkat resurslari | 2021-yil sentabr | Kreditorlarga tasdiqlash uchun mehnatni baholash natijalari taqdim etilganligi | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | tomonidan texnik shartlar va konsultantlarni tasdiqlash.<br><br>Agar kerak bo‘lsa, mehnatni baholash natijalari asosida barcha natijalarni hal qilish uchun belgilangan muddatlar va maxsus resurslar bilan tuzatuvchi harakatlar rejasini tuzish. | | O‘zbekiston Resublikasining Mehnat kodekslari<br><br>ISO 45001 | | 2021-yil noyabr | Kreditorlar tomonidan tuzatish ishlari rejasi tasdiqlanganligi. | |
| 2.6 | Hosil yig‘im paytida pudrat shartnomasi asosida ish olib boradigan xo‘jaliklarda mehnat sharoitlarini, shu bilan cheklanmagan holda, majburiy va bolalar mehnati va pudratchi fermer xo‘jaliklari ishchilarining ish vaqtini baholash bo‘yicha monitoring tizimini ishlab chiqish va joriy etish.<br><br>Pudratchi fermerlarga pudrat xo‘jaliklarida talab qilinadigan mehnat me'yorlariga rioya qilishlari va doimiy ishchilarning ham, mavsumiy ishchilarning ham mehnat sharoitlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari uchun ko‘rsatma va yo‘nalish berish. | Shartnoma asosida ishlaydigan xo‘jaliklarda mehnat me’yorlarini tegishli boshqarish | YTTBning PR2<br>XMKning PS2 | Shirkat resurslari | 2021-yil iyun<br><br>2021-yil paxta hosili davri | Monitoring tizimi kreditorlar tomonidan ko‘rib chiqilganligi va tasdiqlanganligi<br><br>Mustaqil monitoring (masalan, mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlari, XMTning Uchinchi tomon monitoring dasturi / Munosib mehnat dasturi va boshqalar orqali) tomonidan tasdiqlanganligi<br><br>Hisobotlar kreditorlar bilan bo‘lishilganligi | |
| **PR3/PS3** | **Resurslarning samaradorligi va ifloslanishning oldini olish** | | | | | | |
| 3.1<br><br>XMK ESAP 3.1a, 3.1b, | 1. a) Avvalgi sug'orish mavsumida suv ta'minoti va undan foydalanish natijalari, hamda Suv balansi tadqiqoti (Water Balance Study) bo‘yicha tavsiyalar asosida loyihaning to‘rtta tumanida, ayniqsa suv tansiq bo‘lgan hududlarda, | Sug‘orish suvidan samarali foydalanish va suv resurslarini barqaror boshqarish | YTTBning PR3<br>XMKning PS3 | Shirkat resurslari (Indoramaning irrigatsiya bo’yicha jamoasi) | 1. a) 2021-yil sentabr oxirigacha<br><br>1. b) 2021-yil sentabrdan va davomli | 1. a) Suv balansi modelining dastlabki xulosalarini va uning tavsiyalarini hisobga olgan holda va 2020-2021 yillar sug'orish mavsumining natijalari va mavjud ma'lumotlar asosida Suv | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3.2 and 3.3 | qishloq xo‘jaligi suvidan samarali va barqaror foydalanishni ta’minlash;<br><br>b) To'g'ridan-to'g'ri boshqariladigan fermer xo'jaliklarida suvga bo'lgan ehtiyojning doimiy monitoringini va hisobini ta'minlash | rejasini amalga oshirish. | | Sug'orish va suv resurslarini boshqarish bo'yicha mustaqil maslahatchi. zarur | 1. c) 2021-yil sentabrdan va davomli | resurslarini boshqarish bo'yicha tadbirlar rejasi (tadbirlarni bajarish muddatlari bilan).ishlab chiqilganligi.<br><br>1. b) Hozirda faoliyatda bo’lgan Indoramaning qishloq xo'jaligi erlari bo'ylab Suv resurslarini boshqarish bo'yicha tadbirlar rejasini amalga oshirish, shu jumladan suv tanqis bo'lgan joylarda moslashish choralari.<br><br>1. c) Faoliyatini boshlagan / qayta tiklangan ichki tumanlardan boshlab, to‘rtta tumanda suv ta'minoti (hukumat tomonidan) va suv ishlatish (Indorama tomonidan) bo'yicha monitoring davriy ravishda taqdim etiladi. | |
| | 2. Suv iste’molchilari uyushmalari (SIU) orqali turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan davlat va suv foydalanuvchilari bilan mavjud aloqalarni davom ettirish. Suv resurslari vazirligi va mavjud SIU | | | | 2. a) 2021-yil sentabr oxirigacha<br><br>2. b) 2021-yil sentabrdan va davomli | 2. a) Tegishli manfaatdor tomonlar, shu jumladan Suv resurslari vazirligi, SIU va loyiha doirasidagi boshqa foydalanuvchilar bilan kelishilgan holda Suvni | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | bilan kelishgan holda, “Indorama Agro” barcha tumanlardagi suv foydalanuvchilarini cheklamasdan ularga yetarli suv resurslarini taqsimlanishini ta’minlash uchun suvni boshqarish dasturini tuzadi. Ushbu dastur Suv balansi tadqiqotining modeli va qishloq xo‘jaligida suv taqsimotining doimiy monitoringi xulosalariga asoslanadi. | | | | 2. c) 2021-yil sentabrdan va davomiy | boshqarish dasturi ishlab chiqiladi.<br><br>2. b) Suvni boshqarish dasturi Indoramaning hozirda foydalanilayotgan qishloq xo'jaligi yerlari, shu jumladan tegishli manfaatdor tomonlar (Suv xo'jaligi vazirligi va loyiha hududidagi boshqa suvdan foydalanuvchilar) bo'ylab amalga oshiriladi.<br><br>2. c) “Indorama Agro” uning loyihalari joylashgan to‘rtta tumandagi turli Suv iste’molchilari uyushmalariga ikkita ustuvor muammolarni hal etishni ko‘zda tutib tegishli uchrashuvlar va ishlarning bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetkazilganligi; Bunda (i) hukumat tomonidan yetkazib beriladigan kanallarning ishonchliligi va hajmi hamda (ii) magistral kanallar va dalalar o‘rtasida yetkazib berishdagi yo‘qotishlar. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 3. Loyiha hududlarida ichimlik va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun iste'mol qilinadigan suvning sifati tekshiriladi va agar zarur bo’lsa, JSSTning ichimlik suvi standartlariga muvofiq tozalanadi. | | | | 3. 2021 yil dekabrdab va davomli (ob'ektlar ishga tushgunga qadar tugatiladi) | 3. JSST standartlariga muvofiq suv sifatini tekshirish natijalari. Agar zarur bo‘lsa, suvni tozalash muassasasi tashkil etilganligi. | |
| 3.2<br><br>XMK ESAP 3.4 | Drenaj:<br>O‘g‘itlar, pestitsidlar va boshqa kimyoviy eritmalar tayyorlashda qat’iy ko‘rsatmalarni tatbiq etish.<br>Ekinlarning aniq ehtiyojini aniqlashni zimmasiga olish. | Suv drenajini salbiy ta’sirining oldini olish | YTTBning PR3<br>XMKning PS3 | Shirkat resurslari | 2021-yil dekabr | “Indorama Agro” xodimlariga agrokimyoviy materiallar bilan ishlash, qo‘llash va drenaj limitlari hamda ularning monitoringi bo‘yicha o‘qitilganligi. | |
| 3.3<br><br>XMK ESAP 3.5 | Oqova suvlar:<br>Oqova suvlardan xalos bo‘lishda va sanitariyaga amal qilishda Xalqaro sanoat amaliyoti (GIIP) va XMKning Atrof-muhit, sog‘liq va xavfsizlik (EHS) yo‘riqnomasiga amal qilish. Milliy qonunchilik yoki xalqaro qo‘llanmalarda ta‘kidlanmagan bo‘lsa, XMKning talablarini minimal oldini olish chorasi sifatida qabul qilish. | Oqova suvlar sizilishining salbiy ta’sirini oldini olish. | YTTBning PR3<br>XMKning PS3 | Shirkat resurslari | 2021-yil dekabr | XMK ning Atrof-muhit, sog‘liq va xavfsizlik (EHS) ko‘rsatmalariga muvofiq oqova suvlarni monitoring qilinishi | |
| 3.4<br><br>XMK ESAP 3.6 & 3.7 | Agrokimyoviy vositalardan foydalanish va boshqarish:<br>Amaldagi agropestitsidlarni boshqarish siyosatiga va zararkunandalarga qarshi kompleks kurashga quyidagi o'zgarishlarni kiritish:<br>1. Agrokimyoviy moddalar / pestitsidlarni boshqarish rejasi doirasida JSST va | Pestitsidlardan foydalanishning salbiy ta’sirining oldini olish. | YTTBning PR3<br>XMKning PS3 | Shirkat resurslari | 2021-yil dekabr<br><br>2021-yil dekabr | Agrokimyoviy / pestitsidlarni saqlash va boshqarish bo‘yicha reja, shu jumladan skrining protsedurasi<br><br>Saqlash va agrokimyoviy moddalarni tasodifiy ajrab | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish koʻrsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Yevropa ittifoqi ma'lumotlar bazalariga mos ravishda o'simliklarni himoya qilish mahsulotlardagi faol moddalarni qayta ko'rib chiqish va o'ta xavfli yoki juda xavfli deb tasniflangan mahsulotlarni aniqlash, vos kechish va ta'qiqlash uchun skrining tartibini ishlab chiqish. Bunday hollarda Indorama Agro qonunan tasdiqlangan alternativalarni izlaydi va agrokimyoviy moddalar / pestitsidlarni boshqarish rejasiga muvofiq foydalanadi.<br>2. Tuproqning ifloslanishini oldini olish uchun "Indorama" (i) barcha xavfli materiallar oqishi va toʻkilishini oldini olib yoqilgʻi va kimyoviy moddalarni yetarli darajada bogʻlab xavfsiz saqlaydi; (ii) oʻgʻitlar va pestitsidlar eritmalari texnik rezervuar idishlarda yoki maxsus suv oʻtkazmaydigan qoplamali va drenaj sistemali joylarda amalga oshiradi.<br>3. Neft mahsulotlari, pestitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalarning tuproqqa, drenaj kollektorlariga va sugʻorish kanallariga tasodifiy tushishiga javoban Favqulodda choralar rejasini ishlab chiqish. | | | | | chiqishida Favqulodda choralar rejasi | |
| **PR4/PS4** | **Aholi salomatligi, xavfsizligi va himoyasi** | | | | | | |
| 4.1 | Aholi salomatligi va xavfsizligi masalasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va ta'sirlarni batafsil baholashni amalga oshirish va quyidagi masalalarni qamrab oladigan (lekin ular bilan cheklanmaydigan) Aholi salomatligi va xavfsizligini boshqarish rejasini ishlab chiqish: | Mahalliy aholining salomatligi va farovonligiga har qanday salbiy ta'sirni oldini | YTTBning PR4<br><br>XMKning PS4 | Shirkat resurslari<br><br>Zarur boʻlganda AMSXI ning | 2020-yil avgust | Aholi salomatligi va xavfsizligini boshqarish rejasi YTTB va XMK tomonida koʻrib chiqilganligi va kelishilganligi. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | - Chet eldan kelgan ishchilar uchun turar joy<br>- Agrokimyoviy va boshqa xavfli moddalarni tashish, saqlash va ulardan foydalanish<br>- qo'riqchilarni ishlatish<br>- loyiha transport vositalarining harakatlanishiga oid yo'l harakati xavfsizligi choralari<br><br>Kreditorlar texnik topshiriqni baholash uchun ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi | olish yoki bartaraf etish. | | mustaqil konsultanti | | | |
| **PR5/PS5** | **Yerni egallash va majburiy ravishda ko‘chirish** | | | | | | |
| 5.1<br><br>XMK ESAP 5.1 | Quyidagi maqsadlarda dastlabki ma’lumotlarni ekstrapolyatsiya qilish uchun ko‘chirish bo‘yicha xalqaro yetakchi mutaxassisni yollash: 1) oldingi paxta fermasi ijarachilarining ismi, yoshi, yer maydonlari va joriy yashash sharoitini o‘z ichiga olgan profilini yaratish (ularni izlab topish mumkin bo‘lganda va tirikchilik to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lganda); 2) loyihadagi fermer xo‘jaligi ishchilarining profilini yaratish, ularning soni, daromad darajasi va yerni sotib olganidan keyin turmush tarzining o‘zgarishini ko‘rsatish; 3) ushbu fermer xo‘jaliklari ishchilari to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda ushbu ishchilar va yer ijarachilariga ta’sir ko‘rsatish hajmini aniqlash va xaritaga kiritish; 4) XMKning PS5 va YTTBning PR5 talablarida ko‘rsatib o‘tilgan turmush sharoitini tiklashni ta’minlashdagi aniqlangan ta’sirlarni yumshatish va e’tiborga olish uchun vaqt, | Turmush sharoitlarining tiklanishini kafolatlash | YTTBning PR5<br>XMKning PS5 | “Indorama Agro”<br><br>Yetakchi xalqaro ko‘chirish bo‘yicha mutaxassis | 2021-yil iyul<br><br>2021-yil sentabr | Ko'chirish bo'yicha xalqaro mutaxassisni XMK va YTTB tomonidan tanlanganligi va “Indorama Agro” tomonidan yollanganligi.<br><br>Yashash tarzini tiklash rejasini ishlab chiqilganligi va kreditorlar tomonidan ko‘rib chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | budjet va batafsil monitoring rejasi kiritilgan Turmush Sharoitini Tiklash Rejasini (TShTR) ishlab chiqish. “Indorama Agro” ishlab chiqilgan turmush sharoitlarni tiklash rejasini amalga oshirish uchun yetarli mablag'larni (shu jumladan moliyaviy manbalarni) ajratadi. | | | | | | |
| 5.2<br><br>XMK ESAP 5.2 | Ijtimoiy aktivlar dasturini (IAD) amalga oshirish uchun aniq qadamlar ko'rsatilgan daromadlarni oshirish dasturi bilan yangilash.<br><br>Imkoniyat darajasida benefitsiarlarning aniq ta'rifini va ta'sirlarni baholash uchun monitoring dasturini kiriting. | Ta'sir ko'rgan aholi uchun qo'shimcha imtiyozlarni taqdim etish | YTTBning PR1 va PR5<br>XMKning PS1 va PS5 | “Indorama Agro”<br><br>XMKning Maslahat xizmatlari | 2021-yil sentabr | Yangilangan IAD ni XMK va YTTB tomonidan qabul qilinganligi, ko'rib chiqib tasdiqlanganligi. | |
| 5.3 | TShTR ning amalga oshirilishini nazorat qilish | Turmush sharoitlarining tiklanishini kafolatlash | YTTBning PR5<br>XMKning PS5 | “Indorama Agro” | Davomiy yarim yillik asosda: birinchi hisobot 2022 yil martgacha taqdim etiladi (LRP tasdiqlanganidan 6 oy so'ng) | Monitoring hisobotlarini kreditorlar tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun topshirilganligi. | |
| 5.4 | TShTR ning amalga oshirish jarayoni va tugallanishini mustaqil ekspert tomonidan baholash | Turmush sharoitlarining tiklanishini kafolatlash | YTTBning PR5<br>XMKning PS5 | Ko'chirish bo'yicha mustaqil mutaxassis | 2022-yil iyun<br><br>2026-yil iyun | Monitoring hisobotlarini kreditorlar tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun topshirilganligi.<br><br>Yakuniy audit Katta kreditorlar tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun topshirilganligi. | |
| 5.5 | Kelajakda yerni olish uchun yerni sotib olish va hayotni tiklash tizimini yangilash. | Kelajakda yerni olishni Kreditorlar talablariga | YTTBning PR5<br>XMKning PS5 | Ko'chirish bo'yicha | 2022-yil yanvar | Kreditorlar tomonidan tasdiqlangan yerni sotib | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | muvofiq boshqarilishini ta'minlash | | mustaqil mutaxassis | | olish va hayotni tiklash tizimi. | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko'rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **PR6/PS 6** | **Bioxilma-xillik** | | | | | | |
| 6.1<br><br>XMK<br>ESAP 6.1-6.3 | 1) Yaxshi paxta tashabbusi (BCI) [6] tamoyillari va mezonlari bo'yicha o'qitish va mustaqil tekshirish – "Indorama Agro" barcha mavjud va bo'lajak pudratchi fermerlar uchun BCI tamoyillarini o'qitish keng qamrovli tadbirlar rejasini tayyorlaydi.<br><br>2) "Indorama Agro" kompaniyasi to'g'ridan-to'g'ri va shartnoma asosida xizmat ko'rsatuvchi fermer xo'jaliklarida BCI tamoyillari va mezonlarining to'liq to'plamini amalga oshirilishini mustaqil ravishda tekshirish uchun uchinchi tomonni jalb qiladi. Uchinchi tomonning mustaqil tekshirish ishlari Yaxshi paxta standart tizimi (BCSS) [7] ning ishonch jarayoni bo'yicha olib boriladi.<br><br>3) BCI tomonidan tasdiqlagan tekshirish tashkiloti bo'ladi. Ularni jalb qilishdagi texnik topshiriq ishlab chiqiladi va XMK va YTTB bilan o'zaro tasdiqlanadi. BCSS ishonch jarayonidan keyingi tasdiqlash uchun ish rejasi ham tayyorlanadi va XMK va YTTB bilan o'zaro kelishiladi. | Paxtachilikka Yaxshi xalqaro amaliyotni (GIP)[8] qo'llash | XMKning PS6<br><br>YTTBning PR6<br><br>GIP | "Indorama Agro"<br><br>BCI ning mustaqil auditori | i - iii bandlar uchun 2020-yil iyul<br><br>iv band:<br>2020-yil avgust oyida tekshirish ishlari bo'yicha ish rejasi<br><br>Loyiha davomida tashqi tasdiqlash | i. O'qish rejasini XMK va YTTB bilan kelishilganligi<br><br>ii. Mustaqil tekshiruvchi uchun texnik topshiriq XMK va YTTB tomonidan tasdiqlanganligi<br><br>iii. Mustaqil tekshiruv tashkilotini tayinlanganligi<br><br>iv. Tekshirish ishlarining ish rejasini XMK va YTTB tomonidan tasdiqlanganligi | |
| **PR10/ PS1** | **Axborotni oshkor qilish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish** | | | | | | |
| 10.1<br><br>XMK | Kompaniya direktoriga to'g'ridan-to'g'ri hisobot beradigan ikki ayol Aholi bilan aloqa qilish mutaxassisi (AAM) ni yollash | Ijtimoiy xavflarni boshqarish / monitoring qilish | YTTBning PR1 va PR10<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari | 2021 yil iyun<br><br>2021 yil sentabr | Ikki ayol AAM larni yollanganliklari to'g'risidagi dalillar | |

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ESAP 10.1 | AAM larni genderga asoslangan zo‘ravonlik va tazyiq haqida har qanday xabarni xavfsiz hal qilish bo‘yicha o‘qitish | | | | | O‘quv jarayoni haqidagi ma’lumotlarni taqdim etilganligi | |
| 10.2 | Hamjamiyatni tashvishga solayotgan ekologik va ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun doimiy ravishda aholi bilan maslahatlashish va zarurat tug'ilganda ushbu muammolar yechimini tegishlicha topish uchun va tegishli jamoalarga yo’naltirish uchun maxsus mo'ljallangan monitoring ishlarini olib borish. | Ekologik va ijtimoiy xatarlarni boshqarish / monitoring qilish<br><br>Loyihadan ta’sir ko’radigan aholining mazmunli ishtiroki | YTTBning PR10<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari<br><br>Zarur bo’lganda ekspert konsultantlar | Konsultativ uchrashuvlar 2021-yil iyun oyida boshlanib va yilda ikki marta tashkillashtirish | Kreditorlar tomonidan ko'rib chiqish uchun aholi bilan konsultativ tadbirlari uchun vaqt rejasini ishlab chiqilishi<br><br>Konsultatsiya hisoboti kreditorlarga yuborilganligi | |
| 10.3 | Shikoyat qiluvchi tomonlarga hech qanday jazo choralarini qo’llamasdan, mavjud aholi shikoyatlari mexanizmining ish faoliyatini ko'rib chiqish va barcha shikoyatlar tezkor va samarali tarzda qabul qilinishini, qayd qilinishini va ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, | Shikoyatlarni o’z vaqtida va samarali boshqarish | YTTBning PR10<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari<br><br>Ekspert konsultantlar | a) Birinchi to’lovdan oldin<br><br>b) 2021-yil iyul<br><br>c) 2021-yil avgust | a) Uchinchi tomon uchun Texnik shartlar kreditorlar bilan kelishilganligi<br>b) Mavjud aholi shikoyatlari mexanizmini ko’rib chiqilganligi va takomillashtirish bo’yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilganligi<br>c) Uchinchi tomon tekshiruvi boshlanganligi va reja / | |

[6] Better Cotton Initiative (BCI) – Yaxshi paxta tashabbusi
[7] Better Cotton Standard System (BCSS) – Yaxshi paxta standart tizimi
[8] Good International Practice (GIP) – Yaxshi xalqaro amaliyot

| No. | Harakat | Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar (Javobgarlik / manfaatlar) | Talablar (Qonunchilik, YTTBning PR[2], XMKning PS[3], Eng yaxshi amaliyot[4]) | Resurslar | Jadval | Erishish ko‘rsatkichi | Status |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | taklif kreditorlarga yuborilganligi va ular tomonidan tasdiqlanganligi | |
| 10.4 | Ekologik va ijtimoiy samaradorlik bo'yicha yillik hisobotlarni asosiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlari va xatarlari, ular qanday yumshatilganligi va ekologik va ijtimoiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarining (shu jumladan, hodisalar, shikoyatlarni hal qilish va boshqalarning) qisqacha mazmunini manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo'lgan shaklda e'lon qilish. | Loyihadan ta’sir ko’radigan aholining mazmunli ishtiroki | YTTBning PR10<br>XMKning PS1 | Shirkat resurslari | a) 2022-yil yanvar<br>b) 2022-yil aprel | a) Yillik Ekologik va ijtimoiy ochiq ma’lumotlar doirasini kreditorlar bilan kelishilganligi<br>b) Birinchi yillik Ekologik va ijtimoiy hisobot shirkat veb-saytida va mahalliy joylarda jamoatga e’lon qilinishi | |